O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Pulatov Mirkobil Miradilovich

Sana: 26-06-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

247684 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Bektemir tumani "Zilola" MFYdagi 291-sonli maktabni rekonstruksiya qilish.	
Buyurtmachi:	INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH INJINIRING KOMPANIYASI DM
Bosh loyihachi:	"COMPLEX GRAPHICS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi:	“Shaffof qurilish” MAT orqali aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	058170

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2024-yildagi PQ-454-sonli qarori.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.07.2024-yildagi 409-sonli qarori.

1.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 20.01.2025-yildagi 1726-1726264-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.4. Toshkent shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 28.02.2025-yildagi 177366498-sonli xulosasi.

1.5. Buyurtmachi tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan hamda Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi bilan kelishilgan loyihalash topshirig‘i.

1.6. Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya tomonidan 17.01.2025-yilda tasdiqlangan va Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika shtabi hamda Qurilish va uy-joy vazirligi bilan kelishilgan 1-sonli qo‘shma yig‘ilish bayoni.

1.7. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o‘rtasidagi 30.01.2025-yildagi 139840-sonli loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma.

1.8. Davlat Ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 20.03.2025-yildagi 01-02/14-4951-sonli xulosasi.

1.9. “Qishloq qurilish loyiha” MChJ tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan Qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosasi.

1.10. “Toshkent shahar suvta’minoti” AJ tomonidan 8.04.2025-yilda berilgan Obyektning Shahar ichimlik va oqava suv tarmoqlariga ulanishni loyihalashtirish uchun 270/4-904-sonli Texnik shart.

1.11. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MChJ tomonidan elektr tarmoqlariga ulanish uchun 10.04.2025-yilda berilgan 2626420572-sonli Texnik shart.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi DM tomonidan Bektemir tumanidagi 291-sonli maktabning ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari “Loyiha offisi” tomonidan ko‘rib chiqmasligini xaqidagi xat.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 24-iyundagi mazkur ob’ekt limiti 10 mlrd so‘mdan kam bo‘lganligi sababli, “Loyiha ofisi” tomonidan obyekt bo‘yicha ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqilmasligi hamda tavsiya berilmasligi haqida 22-06/6978-sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “Ishchi loyiha” bo‘yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- bosh reja loyiha chizmalari;
- arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- konstruktiv yechimlar bo‘yicha chizmalar;
- elektr ta’minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- yong‘in xavfsizligi tizimi loyihasi bo‘yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- isitish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- obyektning energiya samarodorlik pasporti.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining o‘ziga xos xususiyatlari

- Tuproqning muzlash chuqurligi - 0,7 metr.
- Loyihaning hisobiy zilzilabardoshligi - 8 ball.
- Me’yoriy qor qatlami vazni - 50kg/m^2.
- Me’yoriy shamol bosimi - 38kg/m^2.

3.2. Bosh reja va obodonlashtirish bo‘yicha yechimlar.

Toshkent shahar Bektemir tumani “Zilola” MFYdagi 291-son maktabni rekonstruktsiya qilish (1320 o‘quvchi o‘rinli maktab va 12x24metr sport zali) qurilishi ko‘zda tutilgan. Rejalashtirilgan joylashuv o‘rni- shimoliy, shimoli-g‘arbiy, shimoli-sharqiy va sharqiy tomonlaridan yo‘l orqali aholi turar joylaridan ajralib turadi. Arxitektura va rejalashtirish kompozitsiyasining asosi sifatida Bosh rejada, asosiy bino, qo‘shimcha bino va inshootlar, yurish yo‘lagi va yashil maydonchalar rejalashtirilgan. Bino hududi metal to`siq bilan o‘ralgan. Yo‘llar va yo‘laklar beton va tosh (bruschatka) qoplamalar bilan qoplangan. Chiqindilarni yig‘ish joyi chiqindilarni qulay tarzda yig‘ish va chiqarib tashlashni ta’minlaydi. Yomg‘ir va qor suvlarini drenajlash uchun ushbu loyihada LI-50.4.4/3 temir-beton ariqlari (lotok) qabul qilingan.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Umumiy hudud	2,3 ga.
Bino va inshoatlar maydoni	0,6 ga.
Yo‘l va yo‘laklar	0,4 ga.

Ko’kalamzorlashtirish maydoni 1,2 ga.
Boshqa maydonlar 0,10 ga.

3.3. Arxitektura yechimlari.

Maktab binosi 4 qavatli 1320 o‘rinli bino va sport zali bilan. O'quv bloki binosining o'lchamlari 68,8 x 15,8 metr O'quv bloki uchta blokdan iborat. O'quv bloki 4 qavatli bo'lib, qisman texnik er osti mavjud. Blok 1 mavjud 15 800 x 35 800 metr rejada o'lchamlari bilan ixcham to'rtburchaklar shakli.

Avtoklavlangan gazbeton bloklardan yasalgan ichki qismlar, qalinligi: 100 mm va 200 mm. Texnik er osti qavatlarining poldan shiftgacha balandligi 2,4 metr; Balandligi 1: poldan shiftgacha 4 qavat 3,0 metr. 1-qavatda vestibyullar, qabulxona, zinapoyalar, o'qituvchilar xonasi, sinflar, hojatxonalar mavjud, shuningdek 2, 3 va 4-qavatlarda o'quv xonalari, qizlar va o'g'il bolalar uchun hojatxonalar mavjud.

Barcha qavatlar L-1 tipidagi uchta zinapoyadan birinchi qavatgan to'rtinchi qavat ulangan.

Binoning ichki bezagida suvli emulsiya bo‘yog‘i, keramik plitka va boshqa materiallar ishlatiladi, tashqi bezagida: alyukobond, suvli emulsiya bo‘yog‘i va italogranit plitkalar ishlatiladi. Ora devorlar (peregorodka) - pishgan g‘isht va gazablokdan, metall profillarga har ikki tomondan 2 qatlamdan o‘rnatilgan, sanitar tugunlarda devorlar pishgan g‘isht va gazablokdan qalinligi 120mm. Qavat yopmalari – monolit va yig‘ma temir beton (konstruksiyadan kelib chiqib); balandligi 220 mm. Zinapoyalar-yog`ma temir beton. Tomyog`och konstruksiyadan iborat.

3.4. Konstruktiv yechimlar.

1-Blok. Maktab binosi yer to`lasiz, 4 qavatdan iborat. Bino to`g`rito’rtburchak shaklda, o‘lchamlari 33,8x15,6 metr. Qavatlarning balandligi poldan shiftgacha: 1-4 qavat 3,08 metr.

2-Blok. Maktab binosi yer to`lasiz, 4 qavatdan iborat. Bino to`g`rito’rtburchak shaklda, o‘lchamlari 30,4x15,6 metr. Qavatlarning balandligi poldan shiftgacha: 1-4 qavat 3,08 metr.

Binolarning konstruktiv sxemasi – Qo`lda terilgan kompleks konstruksiyali devorlar: II-toifa

Bino quyidagi konstruktiv elementlardan tashkil topgan:

Poydevorlar – Quyma yaxlit temirbeton t=400mm. Beton B20.

Devorlari–Seysmik yuklarni qabul qilishda ishtirok etuvchi pishgan g'ishtdan loyihalangan. t=380 mm, g'isht markasi M 75, M 50 markali tsement-qum ohaklarida (II toifali devor 180 kPa > R > 120 kPa)

Ustunlar- Quyma temirbeton. Kesim yuzasi 400x400mm. Beton B25

To`sinlar- Quyma temirbeton. Kesim yuzasi 400x400mm. Beton B25

Zinapoya- Yig`ma temirbetondan loyihalangan. Beton B20.

To`suvchi devorlar - pishgan g'ishtdan loyihalangan. t= 120 mm, g'isht markasi M 75, M 50 markali tsement-qum ohaklarida (II toifali devor 180 kPa > R > 120 kPa)

Orayopma – Yig`ma ko`p bo`shliqli temirbeton t=220mm.

Oxirgi qavat yopmasi - Yig`ma ko`p bo`shliqli temirbeton t=220mm.

Tom yopma konstruksiyasi– Yog`och konstruksiyalardan tashkil topgan.

3-Blok. Sport zal binosi yer to`lasiz, 1 qavatdan iborat. Bino to`g`rito’rtburchak shaklda, o‘lchamlari 30,4x15,6metr. Qavatlarning balandligi poldan shiftgacha: 5,55metr.

Binolarning konstruktiv sxemasi–QMQ 2.01.03-19. 3.1 jadvali boyicha 1.1.2. Temirbeton. Bino quyidagi konstruktiv elementlardan tashkil topgan:

Poydevorlar – Quyma aloxida turuvchi temirbeton. Beton B20.

Devorlari – 100mm qalinlikdagi sendvich panelli.

Ustunlar- Yig`ma temirbeton, seriya (1.423.1-3/88. 2K60-7M3-S) bo`yicha olingan. Kesim yuzasi 400x400mm.

To`sinlar- 2 nishabli yig`ma temirbeton 12m seriya (1.462.1-3/89. 2BDR12-5III-v) bo`yicha olingan.

To`suvchi devorlar - pishgan g'ishtdan loyihalangan. t= 120 mm, g'isht markasi M 75, M 50 markali tsement-qum ohaklarida (II toifali devor 180 kPa > R > 120 kPa)

Qavat yopmasi - Yig`ma temirbeton t=300mm. seriya ( 465.1-17.1) bo`yicha olingan.

Tom yopma – Profnastil.

3.5. Yong‘inga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong‘inga chidamlilik darajasi - II tipga mansub.

Konstruktiv yong‘in xavf sinfi - F4.1.

Binoning konstruktiv yong‘in xavf sinfi - C0.

Favqulotda chiqish eshiklari - yo‘laklardan hamda zinapoyalardan.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

3.6. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- binoning tashqi devorlari issiqlik ushlovchi bazalt qoplamasi bilan qoplangan.
- devorlar, qoplamalar tom qismi va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llangan.
- yoritish tizimida svetodiodli chiroqlari o‘rnatilgan.
- binoda qisqa vaqtda yonib-o‘chadigan qurilmalar (harakatni va yorug‘likni sezuvchi) yoritgichlardan foydalanilgan.
- kirish yo‘laklarida eshiklarni o‘zi yopuvchi mexanizmlar (dovochik) va berk yopilishi ta’minlangan.
- loyihada 550 w li jami 50 dona umumiy quvvati 27,5 kVt bo’lgan quyosh panellari rejalashtirilgan.
- loyihada 1 dona invertor 30 kVtlik loyihalashtirilgan.
- loyihada jami 3 dona 300 litrlik quyosh suv isitgichlari o‘rnatilishi rejalashtirilgan.

3.7. Nogironli bo‘lgan shaxslarga qulaylik yaratish loyihasi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya tomonidan 17.01.2025-yilda tasdiqlangan va Davlat dusturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika shtabi hamda Qurilish va uy-joy vazirligi bilan kelishilgan 1-sonli qo‘shma yig‘ilish bayoniga asosan nogironli bo‘lgan shaxslarga qulayliklar yaratish maqsadida bosh reja bo‘yicha hududning ichki yo‘laklariga kontrastli sariq rangli chiziqlar chizilgan. Binoning kirish eshiklariga maxsus belgilar o‘rnatilgan, panduslar tashkil qilingan, binoning ichki yo‘laklari bo‘ylab kontrastli sariq rangli chiziqlar chizilgan, zinapoyalarga ogohlantiruvchi yo‘ltiruvchi belgilar o‘rnatilgan hamda hojatxonalar tashkil qilingan, yuqori qavatlarga ko‘tarilish uchun maxsus kutarish qurilmasi o‘rnatish va boshqa bir qancha ish turlari loyihalashtirilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Loyihalanayotgan obyekt tasdiqlangan loyihalash topshirig‘iga hamda tegishli manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan texnik shartlarga asosan, elektr ta’minoti va elektr yoritish, yong‘in signalizatsiyasi, yong‘in xavfsizligi tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari hamda isitish tizimi loyihada ko‘zda tutilgan.

4.2. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti mazkur obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlari va tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish bo‘yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga olinib, unga asosan loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, o`rnatilgan tartibda kelishilsin.

Natijasi bo‘yicha, loyiha-smeta hujjatlari ShNQ va ShNQ me’yorlari talablariga rioya etgan holda ekspertiza ko‘rigidan o‘tkazish uchun taqdim etilsin.

4.3. Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish bo’sh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organi tomonidan berilgan xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali, Davlat ekologik ekspertizasining xulosasi.

5.3. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qaror talablariga amal qilsinlar. Obyekt bo’yicha buyurtmachi va tegishli vakolatli tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihalar ko‘rib chiqildi.

6.2. Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.4. Eskpertiza natijalariga ko’ra loyihachi tashkiloti tomonidan tayyorlangan smeta hujjatlarining me’yoriy mehnat sarfi bo‘yicha – 65 771,67 kishi/soatni, me’yoriy mashina va mexanzlar sarfi 3 981,5 mash/soatni tashkil qiladi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzor-lashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qatiiy rioya etilsin.

6.6. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.2019-yildagi PQ-4545-sonli qarorining bandlari bajarilsin.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 26.12.2018-yildagi “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1050-son hamda 15.05.1998-yildagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo‘riqlash qoidalariga amal qilinsin.

6.9. O'zbekiston Respublikasi Prezdentining 17.04.2024-yildagi 161-sonli qarori talablari rioya etilsin.

6.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2020-yildagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli farmonining tegishli bandlarida ko‘rsatilgan talablarga to‘liq rioya qilinsin.

6.12. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.13. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 255-sonli qarori talablariqa rioya etilsin.

6.14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-son va 20.04.2022-yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021-yildagi 321-sonli qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2024-yildagi PQ-454-sonli Qarorining 4 - bandida tovar, ish va xizmatlarning narx qismi - Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi belgilanligi sababli qurilish materiallari narxlari ekspertiza tomonidan ko’rilmadi.

6.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldani PQ-266-sonli va SHNQ 2.07.02-22 hamda SHNQ 2.08.07-22 talablariga to‘liq amal qilinsin.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani "Shukur Burxonov" MFYdagi 208-sonli maktabni mukammal ta’mirlash” ishchi-loyihasi ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tayyorlangan loyiha hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Akayev Javlon Israilovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Musayev Rustam Talatovich, Sharaximov Xondamir Sharasulovich, Shamsiyev Odiljon Kobildjonovich, Babayev Aloviddin Nizamudinovich, Atabayev Daniyar Baxtiyarovich, Dosmuxamedova Mariya Valerevna, Amanova Miyassar Aliyevna, Rasulov Dilshod Axmadjon O‘g‘li, Akayev Javlon Israilovich, Karimov Mahmudjon O‘tkir O‘g‘li, Narmuxamedov Ilxom Nigmatovich